OILADA QIZLARNI MUSTAQIL OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OILA VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGI.

Ahmadova Oysha Homid qizi

Navoiy davlat universiteti

Maktabgacha va boshlang‘ich

ta’lim fakulteti tyutori.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik hamkorligining ahamiyati, mazmuni va asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-ona tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ta’lim muassasalari, mahalla, xotin-qizlar tashkilotlari va boshqa jamoatchilik institutlarining bu jarayondagi o‘rni va vazifalari ko‘rib chiqilgan. Qizlarda mustaqil qaror qabul qilish, oilaviy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, iqtisodiy savodxonlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishda oila va jamoatchilik hamkorligining samaradorligi asoslangan. Maqolada mazkur hamkorlikni yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, qizlar tarbiyasi, mustaqil oilaviy hayot, oila va jamoatchilik hamkorligi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, ijtimoiy faollik, ota-ona mas’uliyati, ta’lim muassasalari, mahalla, xotin-qizlar faolligi, oilaviy munosabatlar, tarbiya, ijtimoiy institutlar, psixologik tayyorgarlik, emotsional barqarorlik, emotsional intellekt, ijtimoiy moslashuv, shaxs rivojlanishi, ota-ona tarbiyasi, psixologik muhit, ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalar, mas’uliyat,

mustaqil qaror qabul qilish, ma’naviy-axloqiy tarbiya, oila psixologiyasi.

Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u shaxsning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvchanligi va mas’uliyat hissining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayonda oila muhiti asosiy tarbiyaviy omil sifatida xizmat qiladi. Oiladagi sog‘lom psixologik muhit, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va qo‘llab-quvvatlash qizlarning kelajakda mustaqil qaror qabul qila oladigan, mas’uliyatli va barqaror shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni qaror toptirish va ushbu hamkorlik asosida faoliyatni tashkil etish so‘z yuritilayotgan muammoning ijobiy yechimga ega bo‘lishini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridayoq Respublika hukumati tomonidan oilalar mustahkamligini ta’minlash, farovonligini oshirish, oila muhitida har jihatdan yetuk, komil insonni tarbiyalash masalalarining davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanishi bu borada qator ijobiy ishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Xususan, “Oila” ilmiy-amaliy Markazi, “Sog‘lom avlod” jamg‘armasi tashkil etildi. Mazkur muassasalarda yo‘lga qo‘yilayotgan faoliyatning bosh maqsadi oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga nazariy va amaliy yordam ko‘rsatishdan iboratdir. Jamoatchilik imkoniyatlari, shuningdek, nomlari yuqorida qayd etib o‘tilgan muassasalarning faoliyat yo‘nalishlari mazmuni bilan tanishib chiqish asosida qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik samarali natijalarni beradi degan xulosaga keldik.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, qiz bola tarbiyasida ota-ona munosabatlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalar o‘rtasidagi hurmat, bir-birini

tushunish va hamjihatlik qiz bolaning ongida oilaviy munosabatlar haqida ijobiy tasavvurlarni shakllantiradi. Aksincha, doimiy janjallar, tushunmovchiliklar va psixologik bosim qizlarda xavotir, ishonchsizlik va mustaqil hayotga tayyor emaslik kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda ularda emosional intellektni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Emotsional intellektning shakllanishi qizlarga o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, turmush o‘rtog‘i va oila a’zolari bilan samarali muloqot qilish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish imkoniyatini beradi. Bu esa kelajakda oila barqarorligini ta’minlashda muhim psixologik omil hisoblanadi.

Shuningdek, jamoatchilik institutlari — ta’lim muassasalari, mahalla, xotin-qizlar tashkilotlari va psixologik xizmatlar ham bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ular tomonidan tashkil etilgan psixologik treninglar, suhbatlar, maslahatlar va tarbiyaviy tadbirlar qizlarning ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning mustaqil hayotga tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Xo‘sh, qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o‘rtasida qaror toptirilgan hamkorlikning mazmuni nimalardan iborat bo‘lishi lozim? Ushbu hamkorlikka tayanib faoliyat yuritish qanday natijalarni beradi?

Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash borasida oila va jamoatchilik o‘rtasida ijodiy hamkorlikni qaror toptirishdan ko‘zlangan maqsad - qizlarga oilaviy hayotni tashkil etish, oilada sog‘lom muhitni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari haqida ma’lumotlar berish, ularda oilaviy munosabatlarni tashkil etish hamda oila xo‘jaligini yuritish borasida muayyan amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, bu yo‘lda oilaga nazariy va amaliy jihatdan yordam ko‘rsatish, oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Bizning nazarimizda, qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash borasidagi oila va jamoatchilik hamkorligini qo‘yidagi

yo‘nalishlarda olib borish so‘z yuritilayotgan muammoning ijobiy yechimga ega bo‘lishini ta’minlaydi:

1. Oilada qizlar tarbiyasini tashkil etish, ularda ijtimoiy-g‘oyaviy, axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, gigiyenik hamda sog‘liqni saqlash borasidagi nazariy bilimlarni oshirish, shuningdek, amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish imkonini beruvchi manbalar bilan ta’minlash, uslubiy yordam ko‘rsatish.

2. Muayyan masalalarda mutaxassis maslahati hamda amaliy yordami (masalan, huquqshunos, psixolog, pedagog, iqtisodchi hamda tibbiyot xodimlari tomonidan ko‘rsatiladigan ko‘mak)ni uyushtirish.

3. Ota-onalar ishtirokida qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash muammolariga bag‘ishlangan suhbat, uchrashuv, seminar, ma’ruza va bahs-munozaralarni tashkil etish.

4. Qizlarda zukkolik, donolik, chaqqonlik, uddaburonlik, tashabbuskorlik kabi xislatlar, shuningdek, nafosat his tuyg‘ularini tarbiyalashga yordam beruvchi turli tanlovlarni o‘tkazish.

5. Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash borasidagi ilg‘or tajribalarni ommalashtirish.

Oila va jamoatchilik o‘rtasida yuzaga kelgan hamkorlikning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi, mavzu doirasida yuzaga kelgan muammolarni o‘z vaqtida ko‘ra olish, ularni o‘z vaqtida hal etishga intilish, muayyan muammolarni hal etishda hamjihatlik ko‘rsatish, mukammal ishlab chiqilgan dastur asosida faoliyat yuritish, ilg‘or tajribalarni aniqlash va ularni ommalashtirishning tezkor amalga oshirilishi kabi holatlar qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda borasida bir qator

ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi.

Demak, qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o‘rtasida ijodiy hamkorlikni yuzaga keltirish davr talabi sanaladi. Zero, qizlarning barkamol, yetuk inson bo‘lib yetishishlari, ularning tafakkur va dunyoqarashining kengayishi samarali, maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan ijtimoiy tarbiya natijasi sanaladi. Oilada tarbiyalanayotgan bolalarning ma’naviy-axloqiy kamoloti ota-onalarning hayotiy tajribasi, ma’naviy axloqiy qiyofasi, bilim hamda pedagogik mahoratga egalik darajasi ta’sirida yuzaga kelsada, mazkur jarayonda oilalar va ularda olib borilayotgan tarbiya mazmunining jamiyat tomonidan qo‘llab quvvatlanayotganligiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq. Shu bois oila va jamoatchilik o‘rtasida qaror topgan ijtimoiy hamkorlik oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish, oila muhitida kamol topayotgan farzandlarning ijtimoiylashuvi, ya’ni, davlat, jamiyat, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslarning o‘zaro aloqalari asosida tashkil etiluvchi ijtimoiy munosabatlar mazmunini chuqur anglab yetish, fuqarolik burchlari va haq huquqlarini bilish imkoniyatini yaratadi.

Oila, mahalla, ta’lim hamda tibbiy muassasalar, shuningdek, ijtimoiy tashkilotlar o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik asosida yo‘lga qo‘yiluvchi qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo‘naltirilgan faoliyat muvaffaqiyatini quyidagi ob’yektiv va sub’yektiv omillar mavjudligi kafolatlaydi:

1. Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalasining muayyan jamiyatda ijtimoiy muammo sifatida e’tirof etilishi.

2. Oila muhitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonini samarali yo‘lga qo‘yish imkonini beruvchi pedagogik shart sharoitlarning yaratilganligi.

3. Ota-onalarning qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining nazariy hamda amaliy asoslari to‘g‘risida yetarli darajada bilim, shuningdek, boy hayotiy tajribaga ega ekanliklari.

4. So‘z yuritilayotgan jarayon ishtirokchilari hisoblangan sub’yektlarning o‘z faoliyatlari yo‘nalishlari va mazmuniga tayangan holda bir birlarini moddiy, ma’naviy, metodik hamda kasbiy malaka nuqtai nazaridan qo‘llab quvvatlay olishlari.

5. Ommaviy axborot vositalarining xizmatlaridan oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida tashkil etilayotgan jarayonda unumli, samarali foydalanish.

6. Qizlarda oilaviy hayot, uning mohiyati, mustahkam oilani shakllantirish, oila a’zolari o‘rtasida samimiy, o‘zaro ishonch va hamfikrlilik va hamkorlikka asoslangan oilaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish borasida muayyan tushunchalarga ega bo‘lish, pazandalik, tikish bichish ishlarining sir asrorlarini o‘rganish, shaxsiy gigiyena, shuningdek, oila a’zolarining sog‘liklarini saqlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish borasidagi ҳiziqish va ehtiyojlar yuzaga kelishi hamda ularni qondirish yo‘lida amaliy faoliyatlarning tashkil etilishi, ya’ni, muammo doirasida uyushtirilayotgan tadbirlarning samaradorligini oshirishga yordam beruvchi shaxsiy tashabbuslarning ilgari surilishi, qizlarni mustahkam oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining ishtirokchilari bo‘lgan sub’yektlar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarga nisbatan qizlarda aks ta’sir va ijtimoiy faolliklarining namoyon bo‘lishi.

7. Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlarda qo‘lga kiritilgan yutuqlar mohiyatining o‘rganilishi asosida ularning ilg‘or jihatlari (shaxsiy gigiyenani saqlash qoidalariga rioya etish, oila

a’zolari hamda o‘zlarining salomatliklarini saqlash, biologik qovushish mohiyatini anglash)ni mahalliy, mintaqaviy xususiyatlarga muvofiq qo‘llash tajribasining shakllanganligi.

8. O‘zbekiston Respublikasi miqyosida “Cog‘lom avlod” Davlat dasturi g‘oyalarini amalga oshirishga qaratilgan harakatlar doirasida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo‘naltirilgan faoliyatning tashkil etilishi.

Yuqorida qayd etilgan ob’yektiv va sub’yektiv omillarning mavjudligi hamda ulardan tadqiq etilayotgan muammoning ijobiy yechimini ta’minlash yo‘lida foydalanish darajasi nafaqat oila, mahalla, ta’lim va tibbiy muassasalar, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, keng jamoatchilik imkoniyatlarini ma’lum nuqtada to‘plash uchun zamin hozirlab qolmasdan, balki sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish, ularning aqliy va jismoniy salohiyatlari evaziga muayyan jamiyatning porloq istiqbolining yaratilishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik hamkorligining psixologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi, qizlarda ishonch, mas’uliyat, mustaqillik va emosional barqarorlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki qizlarning kelajakda barqaror va mustahkam oila qurishi, ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, ijtimoiy faolligi va mas’uliyatli shaxs bo‘lib shakllanishi, avvalo, oilada berilgan tarbiya va jamoatchilikning qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liqdir.

Ota-ona tomonidan qizlarda mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, oilaviy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, mehnatsevarlik, sabr-toqat va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalari, mahalla, xotin-qizlar tashkilotlari va boshqa jamoatchilik institutlari ham bu jarayonda faol ishtirok etishi lozim.

Oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligi natijasida qizlarda oilaviy hayotga oid bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanib, ularning kelajakda barkamol oila bekasi, mas’uliyatli ona va jamiyatning faol a’zosi bo‘lib yetishishi ta’minlanadi. Shuning uchun ham qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik hamkorligini yanada takomillashtirish, tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oila pedagogikasi — M.Toxtaxodjayeva. Toshkent: O‘qituvchi, 2018 yil.
2. Oila psixologiyasi — G‘.B.Shodmonov.Toshkent: Fan, 2019 yil.
3. Tarbiya nazariyasi — Sh.Abdullayeva. Toshkent: Fan, 2017 yil.
4. Oila va nikoh asoslari — R.X.Jo‘rayev. Toshkent: O‘zbekiston, 2016 yil.
5. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash metodikasi — M.Quronov. Toshkent: Ma’naviyat, 2018 yil.
6. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi. Xotin-qizlar tarbiyasiga oid metodik materiallar.
7. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi. Oila va jamoatchilik hamkorligiga oid materiallar.
8. Ziyonet — www.ziyonet.uz.
9. Lex.uz — www.lex.uz.
10. Pedagogik ta’lim jurnali.
11. Xalq ta’limi jurnali.